

SO'ZLARNING UZUAL VA OKKAZUAL MUNOSABATI.

Ergashova Marjona Hakim qizi
Termiz davlat universiteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada tilimizdagi so'zlarning uzual va okkazonal munosabati, tilimizdagi me'yorlashgan qonunlar hamda okkazonal so'zlardan foydalanish, ijodkorning individual ijod mahsuli bo'lgan okkazonalizm to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Uzual munosabat, okkazonalizm , nutqiy hodisalar, yozuvchi uslubi, ingerent, adgerent.

O'zbek tili so'zlarga boy til hisoblanadi. Tilimizdagi so'zlar ma'no o'zgarishiga uchrashi, til leksikasiga ijodkorlar tomonidan yangi vazifada qo'llanishi orqali leksik qatlamdagi so'zlar soni ko'payib boradi. Tilshunoslikda so'zlar bir ma'noli va ko'p ma'noli so'zlarga bo'linadi. O'z ma'noli so'zlar uzual so'zlar deb ham yuritiladi. Uzual ma'no leksemaning mazmun mundarijasida bor bo'lgan leksik ma'nodir. U til egasi bo'lgan xalq tomonidan tan olingan, ko'pchilikka tushunarli bo'lgan ma'no hisoblanadi*. Masalan, tozalamoq leksemasining mazmun mundarijasida quyidagi leksik (uzual) ma'nolar bor:

1."kir , chang, ifloslik va shu kabilardan xoli qilmoq"(tish tozalamoq, idishlarni tozalamoq) :Yo'lchi ularga beda tashladi: keyin kyarak va supurgi olib otxonani tozalay boshladi. (Qutlug' qon)

2." aralashmalardan, keraksiz ortiqcha narsa vs qismlardan xoli qilmoq "(spirt tozalamoq, dalsni g'o'zapoyalardan tozalamoq kabi) : Anvar gullarni sug'orish, o'tlarni yulib tozalash vazifasini o'zi bajardi. (" Mehrobdan chayon ")

Okkazonal ma'no leksemalarning tildagi ma'nosuga xos bo'lmagan, ayrim shaxsning(muallufning) nutqiy vaziyatidan kelib chiqib, shu leksema mazmuniga yangicha "tus" berishi natijasida yuzaga keltiriladigan sun'iy ma'nodir. U individual xarakterda bo'ladi va kontekstda anglashiladi. Oybekning quyidagi misralarida esa gul so'zini fan arbobiga nisbatan qo'llab, uning ma'no mundarijasiga okkazonal ma'no tusini bergan: Fan , san'atning gullari butun, To'plangandir suhbat uchun.

Demak, uzual ma'no til birligi(leksik ma'no) , okkazonal ma'no esa nutq birligi sanaladi. Uzual ma'no konteksgacha shakllangan bo'ladi, okkazonal ma'no esa kontekstning o'zida yuzaga keladi, shu kontekst doirasida leksemaga aylanadi*.

Konnatativ ma'noli so'z ham ijodkorning individual badiiyati uchun xizmat qilnaydi, shundan kelib chiqib, manbalarda konnotatsiyaning ikki ko'rinishi: ingerent va adgerent[1, 8]* farqlanadi. Ayrim msnbalarda " Ingerent" va " Adgerent " terminlari o'rnida "Uzual" va "Okkazonal" ma'no tushunchalari qo'llaniladiqo'llaniladi*.

Tilshunos olim M. Mirtojyev ta'kidlashicha, so'zlarning uzual ma'nosi hamma vaqt umumlashgan xarakterda bo'ladi, okkazonal ma'no (individual nutq metaforalari)

mohiyati bilan nutq hodisasi hisoblanadi. Aniq ifoda uchun nutqda hosil bo'lgan okkazional ma'no uzual ma'no tomoni taraqqiy etadi. U ma'lum nutq sharoitida ma'lum so'zlar qurshovidagi so'zda hosil bo'ladi.[5, 46]

Masalan, keng dunyo, o'tkinchi dunyo birikmalari ongimizda bir qolip sifatida shakllanib qolgan. Xo'rlangan dunyo, g'azabkor dunyo, g'ussali dunyo kabi birikmalar esa ma'lum bir vaziyatda alohida ijodkor tomonidan individual ijod mahsuli hisoblanadi.

M. Mirtojiev bu boradagi fikrlarni "okkazional ma'no har qancha yashamasin va tanilmasin, shu holatidan ko'ra taraqqiy etmaydi, uzual ma'noga o'tmaydi" tarzidagi jumla tugatadi. Bu fikrga to'liq qo'shilib bo'lmaydi. Masalan, gul yuz ifodasi mazkur qo'llanishning ilk davrida okkazional munosabatda bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunda kelib bu ma'nosi o'zgarib uzual munosabar qatoriga kirgan. Okkazional ma'noni muayyan bir shaxs o'z nutwida ham qo'llanishi mumkin. Masalan, o'zbek tilida g'azabkor degan so'z yo'q, lekin uni nutqiy vaziyatida qo'llayotgan insonlar bor.

Yozuvchilar o'z uslubida so'zlarning ohori to'kilmagan variantlarini yaratib, tilimizni yanada boyitmoqda. Buni Usmon A'zim she'rlari misolida ko'rishimiz mumkin:

Chizavergin imonimni,

Imongoh yurak oppoq.

Ushbu misradagi " Imongoh" so'zi yozuvchi tomonidan qo'llangan okkazionalizm hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan umumiy xulosa shuki, tilimizdagi uzual va okkazional munosabatlar orqali so'zlar soni ko'payib, til boyligimiz ham o'zgaradi. Muayyan ijodkorning o'z badiiy adabiyotida o'rinli, jo'yali badiiylikni ta'minlashi alohida ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. H. Jamolxonov. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: "Talqin"-2005.
2. B. Mengliyev. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent. 2018.
3. S. Toshaliyeva. O'zbek tilida okkazional so'z yasalishi. - Toshkent: 1998.
4. S. Mo'minov. Okkazional nutqiy nominatsiyada motivatsiyaning roli. -Toshkent, 1990.
5. O. To'xtasinova. Badiiy okkazionalizmlar. -Toshkent, 2006.
6. ziyo.uz.net